

13. КП Узбекистана в борьбе за решение женского вопроса в период строительство социализма: (Сб.док. 4 материал) Ред. колл.: Р.Х.Аминова и др. — Т.: Узбекистан. 1977. — С.428.
14. Азиззода Л. Янги ҳаёт курашчилари. — Т.: Фан. 1976. - Б.62
15. Убайдуллаева Р.А Кўрсатилган асар Б.10.
16. Аминова Р.Х. Кўрсатилган асар Б.36.
17. Муравьёва Н.М. Социально-философский анализ повншения социального статуса женщин. Автореф. дисс... к.ф.н. — Т.: 2003.- С.18.
18. Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммоларига янги чизгилар. Даврий тўплам. №2. — Т.: Шарқ.1999. - Б.180.
19. Алимова Д.А. Женский вопрос в Средней Азии: История изучения и современные проблемн (АН РУ.Институт Истории. — Т.: Фан. 1991. - С.96.
20. Зиёев Х. Тарих - ўтмиш ва келажак кўзгуси. — Т.: Адабиёт ва санъат. 2000. — Б-242.
- 21.

XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI JANUBI-SHARQIY HUDUDLARIDA MADANIY-MA'RIFIY HAYOT

Muxammadiyev Omon Mamataliyevich,
 DXX ChQ "Yosh chegarachilar" harbiy akademik litseyi o'qituvchisi
omonmuxammadiyev19@gmail.com

Annotatsiya: XIX asr oxiri - XX asr boshlarida siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar Buxoro amirligi janubi-sharqiy hududlarida yaratilgan tarixiy asarlarda, falsafiy, tarixiy tafakkurda va adabiyotda ham o'z aksini topa bordi. Bu davrda ham boshqa davrlarda bo'lgani kabi janubi-sharqiy shaharlarda ko'plab shoirlar samarali ijod qildilar. Maqolada XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Buxoro amirligi janubi-sharqiy hududlarida madaniy-ma'rifiy hayot haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: «Xududiya» madrasasi, ilmiy-adabiy muhit, Xo'ja Muhammad Dashtinabotiy, Mulla Xudoyberdi Boysuniy, «qo'sh usuli», Sayyid otaliq madrasasi, Mirza Salimbek.

Аннотация: Изменения в политической, социальной и экономической жизни конца XIX - начала XX веков нашли отражение в исторических трудах, философско-исторической мысли и литературе, созданных в юго-восточных районах Бухарского эмирата. В этот период, как и в другие периоды, многие поэты действовали в юго-восточных городах. В

статье говорится о культурно-просветительской жизни юго-восточных районов Бухарского эмирата в конце XIX - начале XX веков.

Ключевые слова: медресе «Худудия», научно-литературная среда, Ходжа Мухаммад Даштинабати, мулла Худойберди Байсуни, «двойной метод», медресе Сайид Аталиқ, Мирза Салимбек.

Abstract: changes in the political, social and economic life of the late 19th - early 20th centuries were reflected in the historical works, philosophical, historical thinking and literature created in the southeastern regions of the Bukhara Emirate. During this period, as in other periods, many poets were active in the southeastern cities. The article talks about the cultural and educational life in the southeastern regions of the Bukhara Emirate in the late 19th and early 20th centuries.

Key words: "Khududiya" madrasa, scientific and literary environment, Khoja Muhammad Dashtinabati, Mulla Khudoiberdi Baisuni, "double method", Sayyid ataliq madrasa, Mirza Salimbek.

XIX asr - XX asr boshlarida Buxoro amirligi janubi-sharqiy hududlarida ko'pgina ziyoli kishilar faoliyat ko'rsatib, o'zlaridan boy ilmiy va adabiy meros qoldirdilar. Sharqshunos olimlarning sa'y-harakatlari bilan ulardan ayrimlarining hayoti va ijodi hamda ilmiy merosi o'rganilib, ilmiy jamoatchilikka yetkazildi. Ammo, hali maxsus tadqiqotga jalb qilinmagan, ko'plab ziyoli shaxslarning ilmiy va adabiy meroslari borki, ularning amalga oshirgan ishlari XIX asr - XX asr boshlarida Buxoro amirligi janubi-sharqiy hududlarida madaniy-ma'rifiy hayotida muhim o'rin tutadi.

Boysun - qadimdan o'z madaniyati, tarixi, olimlar shoirlar, adiblar, allomalar, muddarislar yetishib chiqqan voha bo'lib, Sharqiy Buxoroda alohida o'rin tutgan tarixiy joydir. Ularning ijodi muayyan darajada o'z davri ilmiy adabiy muxitiga katta ta'sir ko'rsatganligini manbalardan yaxshi ma'lum[3].

XIX asr oxiri - XX asr boshlariga kelib, Boysundagi ilmiy-adabiy muhit o'ziga xos o'rin egalladi. Bunga 1868 yilda Boysun bekligini tashkil etilishi va beklidagi qo'sh madrasa hamda yuzlab machitlarni faoliyat ko'rsatishi sabab bo'ldi[3]. Faqatgina shahar markazida 22 ta machitlar faoliyat ko'rsatgan. Boysun Xisor, Boljuvon, Dexinav va Sherobod beklklarini chorrahasida joylashganligi, o'zini go'zal tabiati, so'lim go'shalari bilan insonni maftun etganligi tarixiy manbalarda yozib qoldirilgan.

Boysunning Tuzbozor mahallasiga burulishida (hozirgi «Samo» kinoteatri o'rnida) 1870 yilda Buxoro amiri Muzaffarxon davrida me'moriy yodgorlik hisoblangan «Xududiya» madrasasi kurilib, oradan ozroq vaqt o'tgach ikkinchi madrasa Buxoro amiri Abdulaxadxon davrida qurilib, foydalanishga topshirilgan. Bu madrasalar qo'sh madrasa deb nom olgan. Madrasa xovlisida usti gumbaz qilib berkitilgan yopiq suv xavzasi-sardoba bo'lib, darvozadan kiraverishda chapda darsxona, o'ngda masjid, xovli to'rida esa xonaqoh joylashgan. Madrasasida muddaris, mutavalli, muazzin, farrosh va qoravullar uchun maxsus xujralar bo'lgan.

«Xududiya» madrasasi muddarislar: Mullo Xudoyberdi Boysuniy, Mullo Holl Oxund, Mirzo Abduholik va boshqalar ilm-u tahlil bilan shug'ullangan.

Madrasa faqat me'moriy yodgorlik

bo'lmasdan, tarixiy va madaniy jihatidan ahamiyatli bo'lgan. Bu yerda Boysuniy taxallusi bilan ijod qilib, nom qozongan Masexo ibn Qozi Mullo Muntaxoyi Boysuniy, Mullo Holl Oxund, Mullo G'ulom Muhammad Ali, Mirzo Abduholik, Jo'ra Mullo Mirzo o'g'li, Mullo Sharif, Mullo No'mon, Mullo Xudoyberdi Boysuniy, Mullo Do'stmuhammad Nodir Boysuniy, Mufti Ravshan, Mullo Norkul, Burixuja Kodirxuja ug'li, Sayid Ataqlbek, Sharifmaxsum va boshqalar taxsil olishgan.

Sovet hokimiyati davrida mamlakatda kechgan siyosiy jarayonlar tufayli 1936 yilda barcha diniy tashkilotlar qatori madrasa «Diniy xurofat» deb e'lon qilinib, buzib tashlangan. Sovet hokimiyati davrida «Eskisini buzamiz va yangisini quramiz» shiori asosida, madrasa o'rniga «Sog'liqni saqlash poliklinikasi» qurilib, 1955 yilda poliklinika ham buzib tashlanib, uning o'rniga ma'lum muddat savdo do'koni va choyxona qurilgan. 1966 yilda «Samo» kinoteatri ishga tushirilgan.

Mulla Xudoyberdi Boysuniy - Boysunda tug'ilib, Buxoro shahrida madrasasida tahsil olgan. Mulla Xudoyberdi Boysuniy o'z davrining yirik muddarisi bo'lib, taniqli ilm sohibiga aylandi[3].

Ma'lumki, Buxoro XIX asr boshlarida ilm-fan rivojlanib, ko'plab ilm ahli ta'lim olish uchun Buxoro shahriga keldi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Xivada 132 madrasa, Qo'qonda 182 madrasa faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, Buxoro Sharifda 400 ta maktab va masjid, 350 madrasa faoliyat ko'rsatgan[3].

Mulla Xudoyberdi Boysuniy Niyozquli deb nomlangan madrasada talabalarga saboq berib, alohida obro'-e'tiborga sazovor bo'ldi. O'zbekiston Milliy universiteti professori Begali Qosimovning ma'lumotiga ko'ra, mazkur madrasaga amir Abdulaxad alohida e'tibor bilan qaragan, ayrim muddarislarining janozasiga shaxsan qatnashgan. Shuningdek, bu madrasa eng kuchli, bilimdon har tomonlama yetuk muddarislar tanlab olingan. Ular faqat dars berish bilan kifoyalanib qolishmagan. Balki mavjud o'qish-o'qitishning eskirgan usullarini dadillik bilan tanqid qilib, undan voz kechishi, o'qitishning yangicha, ilg'or usullarni targ'ib qilib, maktab va madrasalarni islox qilish g'oyasi bilan chiqqanlar. Mulla Xudoyberdi Boysuniy ana shunday refermator (isloxotchi)

muddarislar orasida salmoqli o'ringa ega bo'lib, uning safdoshlari Mulla Fozil G'ijduvoni, Abdulla Xo'jandiy, Mo'minxo'ja Bobkandiy, Xo'ja O'zbeklarning qarashlari va g'oyalari o'zbek, tojik, turkman va tatar talabalariga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Atoqli ma'rifatparvar va olim **Shaxobiddin Marjoniy** (1818-1889) o'zining «Kitobi mustafad al-axbor fi ahvoli Qozon va Bulg'or» («Qozon va Bulg'orning ahvoli xususida foydalanilgan xabarlar») nomli ilmiy asarida (42-43 saxifalarda) o'zining 1254-60 yillarda (xijriy) Buxorodagi Xalifai Niyozquli madrasasida taxsil olganligi, bu yerda Abdulla Xo'jandiy, Mulla Fozil G'ijduvoni, Xo'ja binni o'zbek, Al Afsanjiy, Xoji Mulla Xudoyberdi Boysuniylardan saboq olganligini hurmat bilan tilga oladi. Bu o'rindagi muxim bir fakt e'tiborimizni o'ziga tortdi. Bu Mulla Xudoyberdi Boysuniyning «Xoji» deb tilga olinganligidadir. Demak, Boysuniy haj safarida bo'lgan va va hoji unvonini olgan. Ushbu haj safari Mulla Xudoyberdi Boysuniy umrining oxirgi yillarida bo'lganligi xaqiqatga yaqindir. Chunki musulmon olamida haj safari ko'prok kishilarning keksalik davriga to'g'ri keladi.

Ma'rifatparvar olim Sh.Marjoniy, G'ijduvonlik domla Fozil, Mo'min Xo'ja Bobkandiy va Mulla Xudoyberdi Boysuniy hamda boshqa muddarislar turar edilar. Ular keraksiz darslarni olib tashlash, maktab va madrasalarni islox qilish, o'qish-o'qitishda yangiliklarni joriy etishdan iborat edi. Yuqorida tilga olingan isloxotchilarning dasturida 6 ta masala keng o'rin olgan bo'lib, ular kuyidagilarni o'z ichiga oladi.

1. Qur'oni karimdagi har kandy diniy masalalarni kishilar tushungan holda erkin fikr yuritsinlar.

2. Birovning birovga ko'r-ko'rona ergashishi qat'iyman man qilinsin.

3. Madrasalarda o'qitiladigan xoshiya va sharq kabi quruq mazmunga ega bo'lgan va madrasa talabalari uchun foydasiz bo'lgan hamda ularning 8-10 yil vaqtini bekorga oluvchi darslar jadvaldan olib tashlansin.

4. Madrasalarda Qur'oni Sharif va xadislarning tarjimalari va islom tarixi kabi darslar o'tilsin.

5. Arifmetika, tarix, jug'rofiya, tabobat, xandasa, mantiq, falsafa va boshqa dunyoviy

fanlarni o'tishga qarshilik ko'rsatilmasin.

6. Musulmonchilikni Muhammad payg'ambar davridagi qadimgi islom madaniyatiga qaytarish.

Bu fikrlar bilan maydonga chiqish, erkin fikrlarni targ'ib qilish oson ish emas edi, albatta. Asrlar davomida tomir otgan ko'pgina tartib asoslariga qattiq zarba bo'lib tushar edi. Shu boisdan bunday chiqishlar «Shakkoklik» hisoblanar edi, og'ir jazo va shafqatsizlik kutar edi. Mulla Xudoyberdi Boysuniy buni bilar va safdoshlari bilan shunga tayyor edi. Ko'rinadiki, Mulla Xudoyberdi va uning safdoshlari dadil, jasur va shijoatli, qo'rqmas bo'lganlar. Amirning qattiq qarshiligiga duch kelgan Mulla Xudoyberdi Boysuniy, domla Fozil G'ijduvoni, Mo'minxo'ja Bobkandiy zindonga tashlanib, og'ir jazoga duchor bo'ldilar. Marjoniy esa Buxoroni tashlab Qozonga ketishga majbur bo'ldi. Zindonga tashlangan Mulla Xudoyberdi va uning safdoshlariga amirning buyrug'i bilan orqalariga 75 darra urilgach, ular majbur qilinib, tavba qildirildi va bunday ishni davom ettirmaslik uchun qasam ichishga majbur qilindi. Ish shu bilan tugadiki, ular muddarislikdan butunlay chetlashtirildi. Professor Begali Qosimovning «Salom, kelajak» nomli asarida Shaxobiddin Marjoniy haqida fikr yuritar ekanlar, uning zabardast ustozlaridan biri Mulla Xudoyberdi Boysuniy deb alohida tilga oladi. Jahongashta, kitob shaydosi deb ta'kidlaydi. Ilm yo'lida «mujarrad» ya'ni tanholikda oila ko'rmay hayot kechirganligini ko'rsatib o'tgan. Professor Begali Qosimov Mulla Xudoyberdi Boysuniyning vafoti yilining 1847 yil deb yozganlaridan ma'lumki, bu sanaga salkam 150 yil to'ladi.

Asli Boysunlik Buxoroi Sharifda shuhrat qozongan, islohotchi Mulla Xudoyberdi Boysuniy shon-sharafga burkangan ajdodlarimiz orasida eng faxrlı o'rinlardan birini egallaydi.

Mirza Salimbek - Ibn Muhammad Raxim (1850-1930)- tarixchi, shoir davlat arbobi, Diplomat. Mirza Salimbek Buxoro amirligining Toshkentdagi savdo vakili (1873-1885), Yakkabog' (1893-1898), Nurota (1898-1902), Boysun (1902-1905), Sherobod (1905-1909), Shahrisabz (1910-1913), Chorjuy (1920) viloyatlar hokimi, Buxoro mirshabi (1889). 1885

yilda amir Abdulaxad jo'natgan elchilar tarkibida Petrburgda bo'lgan. 1920 yil 29 avgustda qizil qo'shinlar tomonidan xibsga olingan va amirlikning boshqa amaldorlari bilan Sibirga surgun qilingan. 1922-1924 yillarda Buxoro respublikasi «Afkof», «Anjumani tarixi» tashkilotlarida ishlagan. Kolesov boshliq qizil qo'shinlarning Buxoro hujumi paytida (1918 yillar) amirning Kolesov bilan muzokara olib borgan vakillar xay'atiga rahbarlik qilgan, keyin u devonbegi mansabiga, zakoti lavozimiga ko'tarilgan.(1917-1920).Mirza Salimbek («Tarixiy Salimiy» - qadimdan amirlikning 1920 yilgacha tarixi), «Kashkuli Salimiy» - (Salimiyning darveshlar xaltasi) 1913 yil, Toshkent «Jomen Gulzor» (Gulzor majmui) she'riy asari, «Axodisnle'mol» (amaldagi xadislar-1911 yil Buxoro). «Durratul voizin» («Voizlar sochgan durlar» 1909, Buxoro), «Muxbirul-xikoyot» («xabar beruvchining xiqoyatlari» 1908, Toshkent), «Ka'bulaxbor xiqoya sari 1909, Toshkent»). Mirza Salimboy tazkira ham tuzgan. Qori Raxmatulla Vozekning «Tuxfatul axbob» («Dilga yaqin kishilarga tuxfa») tazkirasini nasirga tayyorlashda o'ziga zamondosh 100 ga yaqin shoyirlar haqidagi ma'lumotlarni unga ilova qilgan. Mirza Salimbek - 1902-1905 yillarda Boysun begi bo'lgan. Rus akademigi A.A.Sumyonov tomonidan «Buxoroning so'nggi tarixchisi» deb atalgan Mirza Salimbekning ishi biz uchun beqiyos ahamiyat kasb etadi. U o'zining noyob iqtidori orqasidan oddiy mirzolikdan Buxoro Amirining bosh moliyachisi, Boysun (1902-1905) 1905 yildan boshlab Sherobod bekliklarining xukumdori lavozimiga ko'tarildi. Mirza Salimbek yoshlik yillarida O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan zabt etilishi guvoxi bo'ldi, yoshi keksayganida Oktyabr to'ntarishi ruy beradi, keyin amir ag'darildi va Buxoro xalq Sho'rolar Respublikasi o'rnatilishini guvoxi bo'ldi. Mirza Salimbekning «Tarixi Salimiy» memuari nodir qo'lyozma sifatida alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Uning e'lon qilinmagan esdaliklari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti fondida 2016 raqami bilan saqlanadi.

Mirza Salimbek - Boysundagi «Holosiya» madrasasini qurdi, yer va mulklarning bir qismini vaqfga topshirdi. Yodgorliklarini

ta'mirladi, shuningdek adabiy faoliyat bilan shug'ullandi. Bir qator tarixiy, adabiy va diniy asrlar uning kalomiga mansubdir. Amir Muzaffar davri (1860-1885) so'ngra amir Abdulaxadxon davri (1885-1911) davrilarida o'zini xizmatini boshlagan Mirza Salimbek arab, o'zbek va fors tillarini mukammal bilgan. Mirza Salimbek ham nasrda, ham nazmda qalam tebratdi. Boysun bekligi davrida juda ko'p ishlarni amalga oshirdi. Adolatlikni o'rnatdi. 1905 yildan Mirzo Salimbek Sherobod bek etib tayinlandi[2].

Bu davrda Denov bekligidan ham madaniy sohada siljishlar bo'ldi[4].

Kalomiy XIX asrda Surxondaryoda yashab ijod qilgan shoirlardan biridir. Uning hayoti va ijodi to'liq ismi sharifi xususidagi ma'lumotlar qo'limizda yo'q. XIX asrning ikkinchi yarmi Kalomiy ijodining gullagan davri bo'lgan. Ayni paytda u Amir Muzaffar va 1885 yilda taxtga o'tirgan. Uning o'g'li Abdulaxadxon hamda ularning bek va amaldorlari tomonidan xalqqa qilingan jabr-zulmni o'z ko'zi bilan ko'rdi. Bundan alam tortgan va iztirob chekkan shoir quyidagilarni yozadi:

Adl bisotida topib zolim jo,
Turdi xayo manzilida behayo.
Kibru g'azab quvaladi insofni,
Buzdi xamoqat suxan sarrofn.

1887 yilda kuchayib ketgan jabru-zulm, amir amaldorlarning beboshliklariga qarshi Denov, Sho'rchi, Sherobodda ko'tarilgan qo'zg'olonlar shavqatsizlik bilan bostiriladi. Amir siyosatidan norozi bo'lgan Kalomiy quyidagilarni bitadi:

Siyosatdin bo'ldi zamona oxir,
Zulm bir – la bo'ldi xamisha amir

Najot yo'lini topa olmagan, zamona adolatsizliklaridan, jabru-zulmidan dovdiragan Kalomiy Xudoga muroaat qilib, undan imdod, ko'mak so'raydi:

Ko'nglimda tuman ming orzuyi mushkul,
Jonimda xama dardi olamdir xosil
Ey karami Olloh, karami umidim sensan
Sen ikki jahon mushkulin oson etgin.

Xo'ja Muhammad Dashtinabotiy – ulug' shayx va allomalardan bashorat va karomat sohiblaridan bo'lgan. Qachon yashab o'tganligi noma'lum.

Mulla Abdunabi Al Xisoriy – XIX

asrning taniqli xattotlaridan bo'lgan. U kishi muallifi noma'lum "Xolli lug'oti Navoiy" asarini xijriy 1268 yilda ko'chirgan. Bu kitob O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti jamg'armasida 708-raqam ostida saqlanmoqda.

Mavlono Ibroxim Xisoriy – XVII-XVIII asrlarda yashagan olim va xattot bo'lgan. Dastlab Xindistondagi bir qancha madrasalar dars berib, so'ngra Buxoroga qaytgan, bu yerdagi Yalangto'sh va Jo'ybor madrasalarida dars bergan.

Mirzo Fatxullo – XIX asrda Sangardakda yashab ijod qilgan. Taniqli xattotlardan biridir. U xijriy 1290 yilda fors-tojik shoiri Shayx Fariddin Attorning "Mantiq ut tayr" asarini ko'chirgan va kitobaat qildirgan[2].

Abdushukur ibn Muhammad Siddiq Sinagiy – XIX asrda yashab ijod qilgan xattotlardandir. U hozirgi Denov tumanining Sina qishlog'idan bo'lgan. U "Chor kitobi forsiy" va "Muximot ul muslimiyn" asarlarini ko'chirgan. Denovlik ilmiy tadqiqotchi Abdusalim Norboevning ma'lumotiga qaraganda u "Muqimot ul muslimiyn" asarini xijriy 1307 yilda ko'chirganda o'zi yozgan dostonni ham kiritgan. Abdushukur ibn Muhammad Siddiq Sinagiy – Xisor madrasasida o'qigan va xattotlik qilgan. Uning Qozi Boysunlik Mulla Abduqayum Xoji Mulla Abduzarif uchun Bedil va Amiriy devonlari go'zal xusnixat bilan ko'chirganligi ma'lum[2].

Bibi Mulla Narziyoy – XIX asrda Sina qishlog'ida yashab ijod qilgan. Undan anchagina she'r, g'azallar qolgan[2].

Bibi Mulla Mayram – XIX asrda Sina qishlog'ida yashab ijod qilgan lirik shoira bo'lgan[2].

Shior Abdusamad – XIX asrda yashagan so'fiy shoir. Uning tasavvuf yo'nalishidagi she'r, dostonlarda mavjudligi va ular Hisor, Denov madrasalarida darslik sifatida o'qitilgani haqida ma'lumot bor[2].

Sayyid otaliq majmuasi qurilgan kezlarda Buxoro xonligini Imomquli Bahodirxon boshqargan, o'zidan oldingi hukmdorlardan farqli o'laroq, mamlakatda hukm surayotgan feodal urushlarga chek qo'yishga va markaziy hokimiyatni mustahkamlashga erishgan edi. Imomqulixon Balx va Xorazmni Buxoro xonligiga birlashtirilmagan bo'lsa-da, qozoqlar,

qalmiqlar, mo'gullarga qarshi muvaffaqiyatli kurashib, xonlik hududini shimoli-sharqqa kengaytirgan edi. Umuman, tarixchilar Imomqulixon davrida mamlakatda osoyishtalik va farovonlik bo'ldi, shaharlar va qishloqlar ravnaq topdi, deya e'tirof etishadi. Tabiiyki, Surxon vohasining barakali mintaqasi bo'lmish Hisor va uning markazi Denovda ham ma'rifiy va madaniy hayot izga tushgan, madrasa qurishga ehtiyoj tug'ilgan edi.

Sayyid otaliq madrasasi «qo'sh» shaklida qurilgan. Arxitektura «qo'sh» deb, ikki bino fasadining bir-biriga qarama-qarshi qurilishiga aytiladi. Denovda madrasa va xonaqo fasadlari bir-biriga qarama-qarshi qurilgan, ularning ko'ndalang o'qi ikkala inshoot o'rtasidan o'tgan. O'rtadan o'tgan yo'l esa Denovbegi qo'rg'oniga eltar edi. XVI asrda Buxorodagi Abdullaxon va Modarixon, Ulug'bek (1420) va Abdulazizxon, Domla Tursunjon va Muhammadyor otaliq madrasa va xonaqolari bir-biriga qarama-qarshi qurilgan, ko'ndalang o'qlari ikki bino o'rtasidan o'tgan yo'l bo'lgan.

Yana bu shunisi bilan e'tiborliki, XVI-XVII asrlarda qurilgan binolar o'rtasidan o'tgan yo'l albatta biror e'tiborli yoki mo'tabar joyga olib borgan. Masalan, aytib o'tilgan Domla Tursunjon va Muhammadyor otaliq madrasasi va xonaqosi orasidan o'tgan yo'l Buxoro Arkiga, Xivadagi Qutlug'murod inoq va Olloqulixon madrasalari orasidan o'tgan yo'l mahobatli maydon tashkil etib, Xivaning Polvondarvozaga chiqish joyiga, Do'qonda Madalixon va Sulton Murodbek madrasalari orasidan o'tgan yo'l g'isht ko'priikka olib chiqqan (bu inshootlar asosan XVIII - XIX asrlarda qurilgani tufayli «qo'sh usuli» XVI - XVII asrlardan keyin ham saqlanganini kuzatamiz). Denovdagi Sayyid otaliq madrasasi va xonaqosi orasidan o'tgan yo'l Denov begi qo'rg'oniga olib borishi bu tarixiy obida XVI - XIX asrlar udumi asosida qurilganligidan dalolatdir.

Xulosa tarzida ta'kidlash mumkinki, XIX asr - XX asr boshlaridagi murakkab iqtisodiy-siyosiy vaziyatga qaramasdan Buxoro amirligida adabiy muhit rivojlandi, taraqqiy etdi. Turkiston xalqlarining fan va madaniyati mustamlaka tuzumining biqiq sharoitida ham, ruslashtirish siyosatining barcha zug'um-sitamlariga qaramay, rivojlanishdan to'xtamadi.

Mustamlakachilar ilm-ma'rifatga intilish, ilg'org'oyalar va istiqbol istagini bo'g'ib tashlay olmadilar. Ushbu muhitda voyaga yetib, faoliyat yuritgan ijodkorlarning hayoti va adabiy merosi

bugungi kunda tarixchilarimiz va adabiyotshunoslarimiz tomonidan mufassal o'rganilmoqda.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Avazov U.Yu. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligining janubi-sharqiy bekliklaridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot. Tarix fan. nomz. diss. avtoreferati. – Toshkent, 2005. – 28 b.
2. Tursunov S. Denov. –T., Fan. 2009. 493-bet.
3. Tursunov S. Boysun. –Toshkent: Akademnashr. 2011. -B. 431.
4. Tursunov S. Sherobodliklar. –T., A.Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi. 2006. 385 bet.
5. S.Tursunov va boshq. Surxondaryo tarixi. -Toshkent: «Sharq», 2004. -B. 124.

ЗИГМУНД ФРЕЙДНИНГ ПСИХОАНАЛИЗ НАЗАРИЯСИ ВА УНИНГ АНТРОПОЛОГИЯ ВА ЭТНОЛОГИЯГА ТАЪСИРИ

**Убайдуллаева Барно Машрабжонова,
Ўзбекистон Миллий университети “Антропология ва этнология”
кафедраси доценти, тарих фанлари доктори.**

Аннотация: Мақолада машхур психиатр Зигмунд Фрейднинг тотемизм, анимизм, диннинг моҳияти юзасидан психоаналитик назариялари бўйича маълумотлар келтирилган ва таҳлил қилинган. Шунингдек, Фрейднинг турли халқларда табуларнинг пайдо бўлиши ҳақидаги қарашлари баён этилган.

Калит сўзлар: халқлар, руҳий, тотем, табулар, психологик, онг, онгсизлик, «эдип комплекси», инсон.

Аннотация: В статье представлены и проанализированы сведения о психоаналитических теориях тотемизма, анимизма и сущности религии известного психиатра Зигмунда Фрейда. Также описаны взгляды Фрейда на возникновение табу у разных народов.

Ключевые слова: народы, психический, тотем, табу, психологическое, сознание, бессознательное, «эдипов комплекс», человек.

Annotation: The article presents and analyzes information about the psychoanalytic theories of totemism, animism and the essence of religion by the famous psychiatrist Sigmund Freud. Freud's views on the emergence of

taboos among different peoples are also described.

Key words: peoples, mental, totem, taboo, psychological, consciousness, unconscious, "Oedipus complex", human.

**«Аслида аксарият кишилар
хақиқий эркинликни хоҳламайди,
чунки, эркинлик масъулият ва
жавобгарликни тақозо этади,
жавобгарликдан эса кўпчилик қўрқади»
- Зигмунд Фрейд.**

Антропология ва этнологик тафаккур шаклланишида психоанализ назарияси алоҳида ўрин тутди. Инсон ҳақидаги психоаналитик тасаввур XX аср бошларида австриялик психиатр олим Зигмунд Фрейд томонидан яратилди ва нафақат ўша давр психологияси, психиатрияси, шунингдек, деярли барча ижтимоий фанларга катта таъсир кўрсатди. Айтиш мумкинки, психоанализ туфайли Европадаги маданият бўйича назариялар инқилобий ўзгаришларга юз тутди.

З.Фрейднинг қарашлари, ғоялари психиатрлар, файласуфлар, психологлар, социологлар томонидан ҳар томонлама